# ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHAXSIYATIDA INSONPARVARLIK G'OYALARI.

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*"Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar"ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi* ***Abdulmanopov Ismoiljon***

*+998 94 701 33 06*

*Ilmiy rahbar: Qo'ysinova Fazilat Oripovna;*

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*"Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar" kafedrasi dotsenti,*

*Siyosiy fanlar doktori (DCs)*

**Annotatsiya:** *Ushbu Maqolada buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni, shaxsiyatida o'ziga xos xislatlari, hayotiy prinsiplari, xalqparvar amallari haqida fikr yuritiladi. Boburning insonparvarlik g'oyalari uning Hindistondagi bunyodkorlik ishlari, mamlakatni gullab-yashnatishi va sharqona madaniyatni olib kirishdagi xizmatlari orqali ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Zahiriddin Muhammad Bobur, Bobur shaxsiyati, insonparvarlik, temuriylar, Hindiston, Sharq sivilizatsiyasi.*

***Annotation:*** *This article discusses the place of the great poet and statesman* ***Zahiriddin Muhammad Babur*** *in world civilization, as well as the unique characteristics of his personality, his life principles, and his people-oriented activities. Babur's humanistic ideas are revealed through his*

*constructive works in **India**, his contribution to the flourishing of the country, and his role in introducing Eastern culture there.*

***Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur**, Babur's personality, humanism, **Timurids, India**, Eastern civilization.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается место великого поэта и государственного деятеля **Захириддин Мухаммад Бабур** в мировой цивилизации, а также его личностные особенности, жизненные принципы и деятельность, направленная на благо народа. Гуманистические идеи Бабура раскрываются через его созидательную деятельность в Индии, вклад в процветание страны и распространение восточной культуры.*

***Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур,** личность Бабура, гуманизм, **Тимуриды, Индия,** восточная цивилизация.*

XV–XVI asr o‘zbek adabiyoti, ma’naviyati tarixida yorqin iz qoldirgan Zahiriddin Bobur umr yo‘lining o‘zi avlodlar uchun ibrat namunasidir. Buyuk Amir Temurning avlodi — Bobur Mirzo bizning Turkiston, Turonning farzandidir. Hali o‘zbek xalqi shakllanib ulgurmagan paytda Bobur o‘zini turkiy xalqlar vakili hisoblagan. Temuriylar avlodi 150 yil Turkiston va Afg‘oniston atrofida, 330 yil Hindistonda umr ko‘rdi. Zahiriddin Muhammad Bobur qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, dunyo xaritasida o‘zining Andijondan to Hindistongacha bo‘lgan mashaqqatli hayot yo‘lining o‘chmas izini qoldirdi. Bobur yurgan yo‘llar juda ko‘p tarixiy voqealar, fojialar, urushlarga guvoh bo‘lgan yo‘llardir. Shu bilan birga, Bobur mehrini, muruvvatini, chin insoniy sifatini oxiri o‘zi qo‘nim topgan Hindistonda namoyon qildi. Hindiston tarixida yangi davrga asos soldi, bu davr mamlakat tarixida porloq hayot, farovonlik va yuksalishga asoslangan davr bo‘lib qoldi.

Boburiylar sulolasi hukmronligi davrida Hindiston uchun keltirilgan foyda shundaki, u zabt etilgan yerlarni talon-taroj qilmadi, balki u yerdagi tarqoq, mayda feodal davlatlarni asta-sekin yagona, kuchli davlatga birlashtira bordi, ichki feodal urushlar va diniy nizolarga chek qoʻyib, turli din va mazhabdagi kishilarni oʻzaro murosaga keltirdi.

Bobur oʻz saltanatini mustahkamlash uchun keng miqyosda bunyodkorlik ishlarini olib bordi, saltanat iqtisodiy va madaniy hayotini jonlantirdi. Atrofga olimu fozillar, shoiru muarrixlar, meʼmor sanʼatkorlarni toʻplab, ularni insho va uy-joy bilan taʼminladi. Bobur obodonchilikka alohida eʼtibor berdi, savdo-sotiqni rivojlantirdi, shahar va qishloqlarga oqar suvlar keltirib, bogʻ-rogʻlar yaratdi. Boburning bunyodkorlik ishlari qatoriga Agrada Bogʻi Hasht Bihisht, Xilvatxona, Zarafshon bogʻi, Orombogʻ (hindlar inglizlar kelgach bogʻni saqlab qolish maqsadida uni Ram-bogʻ deb oʻzgartirishgan),Sekridagi Bogʻi Fath,Dibalpurdagi Nilifar bogʻi,Bogʻi Nazargohlar hozirda ham Hindistonning eng xushmanzara va obod maskanlaridan hisoblanadi. [7 ;11 ].Bu haqda hind xalqining buyuk farzandi Javoharal Neru shunday deydi:Bobur kelishi bilan Hindiston yangi sulola hukumronligida qudratli saltanatga aylandi.Shu bois,Ovrupaning hujum qilish xavfi yoki ehtimoli yoʻq darajaga tushi qoldi.[3 ;61]. Bobur Hindistonda katta obodonchilik va qurilish ishlarini amalga oshirdi. Hovuzlar, bogʻlar, hammomlar, hashamatli imoratlar barpo etdi. Hindistonni bogʻu boʻstonga aylantirishda, muhtasham shaharlar bunyod etishda Hind xalqining hunarmandlarini ishga soldi.Bobur adolatsizlik va zulmni taqiqlagan, munofiqlik, koʻzboʻyamachilik va xiyonatni sezganda, uni keskin yoʻqotish tadbirini koʻrgan. Bobur “yaxshilig‘” radifli gʻazalida oʻzining yashash prinsipini bayon etgan. Uning shaxsiyatidagi insoniylik gʻoyalari “Bori elga yaxshilig‘ qilgʻilki, mundin yaxshi yoʻq, Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘” kabi sheʼriy misralaridan hamda “Boburnoma” voqealaridan koʻrinadi. Uning hayot yoʻli, eng murakkab

vaziyatlarda ham shu tamoyilga sodiqligini koʻrsatadi.Bobur xarakteridagi oliyhimmatlik, adolat va kamtarlik kabi insoniy fazilatlarni Kobul yoʻlidagi mashaqqatli yurishlarida koʻramiz. U navkarlar bilan barobar qor tepib yoʻl ochadi, ular bilan birga kechani qor ostida oʻtkazadi. El chekkan mashaqqatni birga chekishni afzal biladi. Navkarlari sovuqda, qorda boʻlib, u issiqda, istirohat va farogʻatda boʻlishni oʻziga or deb biladi.“Boburnoma”ni qogʻozga koʻchirgan kotib Boburga haqida uning sakkiz fazilatini koʻrsatib oʻtadi: “Sakkiz sifati asil uning zotiga muttasil erdi: birisi bukim, niyati baland erdi; ikkinchisi, himmati arjumand erdi; uchinchisi, viloyat olmoq; toʻrtinchisi, viloyat saqlamoq; beshinchisi, maʼmurligʻ; oltinchisi, rafohiyat niyati Tengri taolo bandalariga; yettinchisi, cherikni koʻngli(ni) qoʻlgʻa olmoq; sakkizinchisi, adolat qilmoq”. Yaʼni Boburda balandnasablik, himmat, jahongirlik, obodonchilik va farovonlikka eʼtibor, adolatlilik va sipohigarlik fazilatlari xos edi.Zahriddin Muhammad Boburning eng noyob asarlaridan biri bu -Boburnomadir. Unda jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik va oʻzbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asari. Eski oʻzbek (chigʻatoy) tilida yozilgan. "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma","Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi nomlar bilan ham maʼlum. Boburning oʻzi esa "Vaqoye" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan.Bobuburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindistonda sodir boʻlgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma yil oʻta aniqlik bilan bayon qilingan boʻlib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bogʻlikdir.5"Boburnoma" oʻzida bayon qilingan voqealar jarayoniga koʻra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afgʻoniston (1504-1524)va Hindiston(1524-1530)dagi hukmdorlik davriga boʻlinadi. Bundan tashqari asar geografik va etnografik dalillarga juda boy[1].Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda oʻzaro dushmanlik qilgan temuriylar — Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud,

Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husayn va ozroq edi.[2]Bunda Bobur Mirzo Kobulga kelganida 23 yoshda ekanligini ko’rishimiz mumkin.1504-yilda Kobulga kirib kelishadi va asarda quydagicha bayon qilinadi:Qo’rg’on eli bisyor odamlardir, muhim beklarni oraga solib, quluqqa kelib mulozamat qildi.Mirzolar va beklar xaloyiqning xujum va hiylasini ko’rib, menga kishi yubordilar, siz kelmaguncha bu elni g’ovg’osini yengib bo’lmas, oxiri o’zim otlandim. To’rtbesh kishini qamab, bir-ikki kishini pora-pora qildim. G’avg’o bosildi.[3] Boburning insoniy fazilatlari haqida gapiradigan bo’lsak, uning ayollarga hurmati va mehribonligida ham ko‘rinadi. Bu xislat uning onasi Eson Davlatbegimga bo‘lgan hurmati, opasi Xonzoda Begimga favqulodda g‘amxo‘rligi, uning taqdiriga achinishlarida ko‘rinadi.Bobur ko‘p xiyonatlar ko‘rdi. Fitnalardan ko‘ngliga ko‘p ozorlar yetdi. Ammo, bular uning tabiatidagi ezgu fazilatlarni yo‘qotmadi. Aksincha, o‘zining ta’kidlashicha, ota-bobolarining an’analariga amal qildi. Xalqning "Yaxshilik qil suvga sol, baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar" degan donolik bilan aytgan so‘zini umr yo‘lida dasturilamal deb bildi. Hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, o‘zi ham shunga yaqin donishmandona xulosaga keldi: "Har kimdin yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa, aning bila amal qilmoq kerak. Agar ota yomon ish qilg‘on bo‘lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak." [2; 169]. "Boburnoma"da buni isbotlovchi dalillar ko‘p. Xatto, uzi bilan taxt talashgan ukasi Jaxongir Mirzoga ham xiyonat va jabr qilmagan.Ba’zan Bobur o‘zining xatosini ochiq tan olib yozgan, xatolardan saboq chiqara olgan va ularni takrorlamaslikka harakat qilgan. Masalan, Andijonning ikkinchi marta qo‘lidan chiqishiga "bemulohoza hukm" chiqarganligini sabab qilib ko‘rsatadi. Bobur xarakteridagi bunday xatoni ochiq tan olish va undan to‘g‘ri xulosa chiqara olish kabi insoniylik sifatlari bugungi yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega.Bobur vatan tuyg‘usi inson ko‘ngliga ravshanlik berib turuvchi noyob mo‘jizagini, undan ayri tushgan inson taqdiri "xazon yaprog‘i yanglig‘" fojia ekanligini kechmish voqealarini bayon qilish orqali ifodalashga erishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Bobur Vatan tuyg‘usi inson ko‘ngliga ravshanlik berib turuvchi noyob mo‘jiza ekanini, undan ayri tushgan inson taqdiri "xazon yaprog‘i yanglig‘" fojia ekanligini kechmish voqealarini bayon qilish orqali ifodalashga erishgan. U hayot mazmuni haqida mulohaza yuritar ekan, hikmatomuz xulosalarni bayon etadi. Donishmandlar kabi u ham "shuhrat bilan yodlanishni ikkinchi umr" deb hisoblaydi: "G‘arazkim, bu dunyoda kishidin nishon degaylar va har kishiga hushdin asar bo‘lsa, nega bundoq harakatga iqdom qilgaykim, undin so‘ng yomon degaylar va har kishiga hushdin asar bo‘lsa, nega bundoq amrga ehtiyoj qilmagaykim, qilg‘ondin so‘ng mustahsun degaylar. Zikri nomero, hakimon umri soniy guftaand". [2; 168]Bobur shoh sifatida ham, ijodkor sifatida ham takrorlanmas shaxsdir. U o‘z faoliyati, hayot yo‘li bilan odamzodning sabr-toqatiga haykal qo‘ygan jasoratli insondir. Bobur yuksak insoniy g‘oyalari, amallari sabab vatandan yiroqda kechgan mashaqqatli qismatdan g‘olib keldi. Shoh sifatida buyuk imperiya tuzdi, ijodkor sifatida o‘zining nodir salohiyatini namoyish eta oldi va haqli ravishda dunyo sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘shdi.

**Foydanilgan Adabiyotlar**:

1.Hurriyat mustaqil gazetasidan.

2. Ахмедов. Б. Узбекистон тарихи манбалари. -Т: Уктувчи, 2001. -Б. 298.

3.Захириддин Мухаммал Бобур. Бобурнома .-Т: Шарк. 2016. - Б.126

4.Захириддин Мухаммал Бобур. Бобурнома .-Т: Шарк. 2016. - Б.134.

5. http://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html.

6. Джавахарлал Неру. Взгляд на мирную историю. Т.2. – М., 1975.

7. R.Shamsuddinov. Buyuk boburiylar saltanati va uning jahon tamaddunidagi o‘rni. “Vodiynoma”, 3/2017/11.

8. Bobur. Boburnoma. Toshkent: 1989.

9. Qudratullaev X. Bobur buyukligining qirralari. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2010-yil 7-son.